

ADVOKAT STAJYORIGA NISBATAN KASB ETIKA QOIDALARINI TATBIQ ETILISHI

Xomidova Sarvinoz Yusup qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Advokatlik faoliyati yo`nalishi magistranti

Abstract: *The content and essence of the rules of professional ethics of the lawyer trainee and their role in the implementation of the lawyer's activity, the consequences of non-compliance with the rules of professional ethics of the lawyer trainee and the procedure for bringing the lawyer to disciplinary responsibility, issues of implementation of the deontological standards of the bar of foreign countries into the national legislation (comparative legal analysis).*

Key words: *lawyer, lawyer trainee, lawyer trainee professional ethics, disciplinary responsibility.*

Аннотация: *Содержание и сущность правил профессиональной этики адвоката-стажера и их роль в осуществлении адвокатской деятельности, последствия несоблюдения правил профессиональной этики адвоката-стажера и порядок привлечения адвоката к дисциплинарной ответственности, вопросы имплементации деонтологических норм адвокатуры зарубежных стран в национальное законодательство (сравнительно-правовой анализ).*

Ключевые слова: *адвокат, адвокат-стажер, профессиональная этика юриста-стажера, дисциплинарная ответственность.*

Annotatsiya: *Advokat stajyorining kasb etikasi qoidalari mazmun-mohiyati va ularning advokatlik faoliyatini amalga oshirishda tutgan o`rni, advokat stajyorining kasb etikasi qoidalariga rioya qilmaslik oqibatlari va advokatni intizomiy javobgarlikka tortish tartibi, Xorijiy davlatlar advokaturasi deontologik standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalari (qiyosiy-huquqiy tahlil).*

Kalit so`zlar: *advokat, advokat stajyori, advokat stajyori kasb etikasi, intizomiy javobgarlik.*

KIRISH

Advokatura bugungi kunda nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki mamlakatimizda ham fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biriga aylanib ulgurdi. Advokatura huquqiy davlat tizimining elementi bo`lib, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog`liq eng muhim konstitutsiyaviy funksiyani bajaradi.

21-asr modernizatsiyalashuv jarayoni mamlakatimiz aholisini ham qamrab olayotgani sir emas. Oxirgi yillarda O`zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohotlar tufayli fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati, siyosiy-huquqiy faolligi

ortib bormoqda. Fuqarolarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun advokatga murojaat qilish ehtiyojining ortishi esa advokaturani zamon talablariga javob beradigan institutga aylantirishni taqozo qilmoqda. Shu o'rinda, BMTning sakkizinchi kongressida qabul qilingan "Yuristlar roliga oid asosiy prinsiplar"⁹⁰ advokatura institutini takomillashtirish demokratik, huquqiy taraqqiyotning birlamchi sharti sifatida e'tirof etilganini ta'kidlash muhimdir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tendensiyasi advokatura institutini kuchaytirishga qaratilayotganligidan dalolat bermoqda. Xususan, advokatura institutining maqomi konstitutsiya darajasida mustahkamlanganligi bu boradagi eng muhim qadamlardan biri bo'ldi. Advokatura instituti Konstitutsiyaning alohida bobidan joy oldi. Unga ko'ra, "Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi. Advokatura faoliyatini tashkil etish va uning tartibi qonun bilan belgilanadi".⁹¹ Bundan tashqari Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 2-bobi advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish maqsadini qamrab olganligini ham ushbu sohaga berilayotgan yuksak e'tibor sifatida baholash mumkin.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, advokatlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqaligina ushbu sohaning jozibadorligiga erishish mumkin. Advokatning o'z kasbini mustaqil va dadil pozitsiyada amalga oshirishi orqali bu sohaga malakali va raqobatbardosh kadrlar keladi. Bu esa fuqarolarga ko'rsatilayotgan yuridik yordam sifatiga bevosita bog'liqdir.

I. Advokatning kasb etikasi qoidalari mazmun-mohiyati va ularning advokat satjyori faoliyatida tutgan o'rni

Yurisprudensiyada vijdonli advokat sifatida obro'ga ega bo'lish advokatning mavaffaqiyatli karyerasida muhim rol o'ynaydi. Bunda advokatning o'z kasb etikasiga amal qilishi muhim talablardan biridir. Advokat butun jamiyat oldidagi o'z majburiyatlarini anglagan holda faqat advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgandagina emas, balki kundalik hayotda ham kasbiy etika qoidalarini unutmasligi lozim.

Etika bo'yicha izohli lug'atda kasb etikasi tushunchasi quyidagicha izohlanadi: kasb etikasi – bu odamlarning kasbiy faoliyatidan kelib chiqadigan o'zaro munosabatlarining axloqiy xarakterini ta'minlaydigan qonuniyatlardir.

⁹⁰ <https://www.un.org/ruleoflaw/blog/document/basic-principles-on-the-role-of-lawyers/>.

⁹¹ O'zbekiston Respublikai Konstitutsiyasi. 141-modda.

Yuridik adabiyotlarda ko'pgina olimlar tomonidan "advokatning kasb etikasi qoidalari" va "advokatlik kasbi qoidalari" tushunchalari bir xil ma'noga ega, deya ta'riflanadi. Ammo bu ikki tushuncha bir-biridan tubdan farq qiladi. Kasb etikasining predmeti bu odob-axloqdor, u insonning ma'naviy fazilatlarida namoyon bo'ladi.⁹²

Dunyoning mashhur advokatlaridan biri M.Y.Barshevskiy advokatlik kasbining 3 ta asosiy tamoyilini ajratib krsatadi: halollik, layoqatlilik, vijdoniylik.⁹³ Etika qoidalari advokatlik faoliyatining turli jihatlarida, xususan, ishonch bildiruvchi shaxslarga maslahatlar berishda, sud protsessida himoya pozitsiyasini amalga oshirishda, advokatning o'z hamkasblari bilan munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Advokatning kasb etikasi bu advokat kasbini boshqa yuridik kasblar orasidan ajratib turadigan tushunchadir. Kasbiy mahorat qanchalik yuqori bo'lsa, axloq normalari ham shunchalik yuqori bo'ladi, yoxud aksincha, axloq normalari qancha yuqori bo'lsa, kasbiy mahorat ham shunchalik oshadi.

Jamiyatda advokat muhim va mas'uliyatli rolni bajarishi tufayli u muayyan kasb va etika mezonlariga javob berishi lozim va bu mezonlar har qanday fuqaroga qo'yiladigan mezonlardan ancha yuqoridir. 1990-yil avgustida BMT ning jinoyatlarni oldini olish bo'yicha VIII Kongressida qabul qilingan "Advokatlar roli to'g'risidagi qoidalar"ning 12-bandida shunday deyilgan: "Odil sudlovning muhim ishtirokchilari hisoblangan advokatlar o'z kasblarining sha'ni va qadr-qimmatini tutib turishlari lozim."⁹⁴

Yuqoridagi aytib o'tilganlarni hisobga olib, advokatlik etikasiga advokatlik faoliyati vakillarining mehnat faoliyati va xizmatdan tashqari xulqining axloqiy xarakterini ta'minlovchi yurish-turish qoidalari majmuidan iborat kasb etikasining bir turi, deb ta'rif berish mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, advokatlik etikasi advokatlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarning odob-axloq kodeksidir.

"Advokatning kasb etikasi qoidalari" O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining II Konferensiyasining 2013-yil 27-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan. 2018-yil 17-noyabrda esa O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining III Konferensiyasi bo'lib o'tdi va unda "Advokatning kasb etikasi qoidalari"ga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu hujjat advokatlik faoliyatini amalga oshirishda har bir advokat uchun majburiy bo'lgan, axloqiy mezonlarga va advokatura an'analariga, shuningdek xalqaro standartlar va advokatlik kasbi qoidalarga asoslangan xatti-harakat qoidalarini belgilaydi.

Advokatning kasb etikasi qoidalari advokatlarga nisbatan amal qiladi. Advokatlar ushbu qoidalarga qat'iy rioya etishi shart. Advokat jismoniy va yuridik

⁹² О соотношении понятий «Профессиональная этика адвоката» и «Правила адвокатской профессии».

Научная статья по специальности «Право». Федосенко Ю. В., 2011.

⁹³ Advokatura. Darslik. D.Nurumov, A.Matmurotov. TDYU 2021. 55-b.

⁹⁴ <https://www.un.org/en>.

shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bilan bog`liq o`z kasbiy vazifalarini qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil tarzda amalga oshiradi. Advokatga bo`lgan ishonchning eng muhim sharti bu – advokatning kasbiy mustaqilligidir. Advokatlarning faoliyati mustaqilligining konstitutsiyaviy kafolatlari konstitutsiyamizning 141-moddasida mustahkamlangan bo`lib, unga muvofiq, “Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko`rsatish uchun advokatura faoliyat ko`rsatadi Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o`zini o`zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi”.

Advokatning kasb etikasi qoidalarini shaxslar doirasida amal qilishi. Qoidalarining 1-bandida kasb etikasi qoidalarining shaxslar doirasida amal qilishi ko`rsatilgan. Ya`ni Advokatning kasb etikasi qoidalari advokatlarga nisbatan amal qiladi. Belorussiya kasb etikasi qoidalari shaxslar doirasini kengroq qamrab oladi, ya`ni ushbu davlatda qonunchiligida kasb etikasi qoidalari advokatlardan tashqari advokat stajyori, advokatning yordamchisiga nisbatan ham tatbiq qilinishi belgilangan. Fikrimizcha bu to`g`ri. Fikrimizni quyidagi holat bilan isbotlab beramiz:

Advokat kasb etikasi qoidalarining 17-bandida advokatlik sirini saqlash qoidalari advokatning yordamchilari va stajyorlariga, shuningdek advokatlik tuzilmalarining boshqa xodimlariga nisbatan amal qilishi belgilangan. Demak, bundan kelib chiqadiki, Qoidalar nafaqat advokatlarga nisbatan, balki ularning yordamchilari va stajyorlariga nisbatan ham amal qiladi.

“Advokatning kasb etikasi qoidalari quyidagi 7 bobdan tashkil topgan:

- I. Umumiy qoidalar.
- II. Advokatning kasbiy nufuzi va shaxsiy qadr-qimmati.
- III. Advokatlarning o`zaro munosabatlari.
- IV. Advokatning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan o`zaro munosabatlari.
- V. Advokatning huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, boshqa davlat, jamoat tashkilotlari va o`zga tashkilotlar bilan munosabatlari.
- VI. Advokatning O`zbekiston Respublikasi Avokatlarning palatasi va uning hududiy boshqarmalari organlari, shuningdek malaka komissiyalari bilan munosabatlari.
- VII. Yakunlovchi qoidalar.

Advokat stajyori tomonidan ko`rsatilayotgan yuridik yordamning sifatligi va professionalligini belgilovchi 2 ta zaruriy omil mavjud va bu omillar advokatning *kasbiy nufuzi va shaxsiy qadr-qimmati* bilan bevosita bog`liqdir. Ular:

- vijdoniylik;
- layoqatlilik.

Vijdoniylik tamoyili advokat o`z kasbiy vazifalarini bajarayotganida bor imkoniyatini ishga solibharakat qilishi, ishonch bildiruvchi shaxsga qisqa vaqtda va uning manfaatlarini maksimal darajada hisobga olgan holda malakali yordam ko`rsatish uchun bor kuchini berishi lozimligini anglatadi.

Layoqatlilik tamoyili esa doimiy ravishda o'z bilimlarini mustahkamlab borishi, huquqni qo'llash amaliyotidan xabardor bo'lishi, qonunchilik rivojlanishini kuzatib borishi lozimligini bildiradi.

Advokat stajyorining boshqa advokatlar bilan o'zaro munosabatlari hurmat va ochiq ko'ngillikka asoslanishi lozim. Mashhur advokat Vatmanning ushbu so'zlari advokatlar o'rtasidai munosabatlarning asl mohiyatini yaqqol ochib beradi: "hamkasiga, uning shaxsiyatiga, mehnat va ijtimoiy obro'siga hurmat, advokatura nomining va sha'ning qadri haqida qayg'urishni o'zining axloqiy majburiyati deb hisoblovchi har bir advokat uchun bosh qoida bo'lishi kerak. Bu advokatlik etikasining alifbosidir".⁹⁵

Advokat stajyorining sud bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalar quyidagilar:

- sudni hurmat qilish, unga bo'ysunish kerak;
- protsessual raqib dushman emas, u bilan xushmuomala bo'lish lozim, uning protsessual huquqlarini har doim hurmat qilish lozim;
- advokat tomonidan yolg'on dalillar berish man etiladi va guvohlarning "ishlov berilishi"ga yo'l qo'yilmaydi.

II. Advokat stajyorining kasb etikasi qoidalariga rioya qilmaslik oqibatlarini va advokatni intizomiy javobgarlikka tortish tartibi

O'z professional faoliyatida amaldagi qonunchilik talablariga, xususan advokatning kasb etikasi qoidalariga rioya etish advokatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Qonunchilik talablari, shuningdek, kasb etikasi qoidalariga rioya qilmaslik muayyan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

"Advokatura to'g'risida"gi qonunning 14-moddasida advokatning intizomiy javobgarligi masalalari bayon qilingan. Unga ko'ra, advokat tomonidan advokatura to'g'risidagi qonunchilik talablari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilganligi unga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Ma'umki, 2018-yil 11-oktabrda O'RQ-497-son qonun bilan «Advokatura to'g'risida»gi Qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, Advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish va ishni ko'rib chiqish tartibiga ham ayrim o'zgartirishlar kiritildi. Bundan buyon advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qaror malaka komissiya tomonidan quyidagilarga asoslanib qabul qilinadi:

- advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlarining, Advokatlarning kasb etikasi qoidalari, advokatlik sirining va advokat qasamyodining advokat tomonidan buzilishi aniqlangan taqdirda, hududiy boshqarma yoki adliya organi rahbarining taqdimnomasiga;
- advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan komissiyaga topshirilgan

⁹⁵ Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent, TDYU. 2019. 88-bet.

murojaatlarga;

- sudning advokatga nisbatan chiqargan xususiy ajrimiga.

Advokat stajyorining kasb etikasi qoidalari buzilgan taqdirga, advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

tegishli hududiy boshqarma yoki adliya organi rahbari malaka komissiyasiga vajlarni bayon etgan holda advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni ko`rib chiqish to`g`risida taqdimnoma kiritish orqali mazkur advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo`zg`atadi. Intizomiy ish yuritishni ko`rib chiqish to`g`risida taqdimnoma hududiy boshqarma tomonidan ro`yhatga olinadi va mas`ul kotibga topshiriladi. Mas`ul kotib komissiya a`zolari va boshqa manfaatdor shaxslarni komissiya majlisi o`tkazilishi to`g`risida 10 kun oldin tegishli tartibda xabardor qiladi.

Intizomiy ish yuritishni ko`rib chiqish natijalari bo`yicha advokatga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo`llanilishi mumkin:

- ogohlantirish (malaka komissiyasining qaroriga ko`ra);
- litsenziyaning amal qilishini 6 oygacha muddatda to`xatib turish;
- litsenziyaning amal qilishi to`xtatib tugatish.

Xorijiy davlatlar qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo`lsak, Belorussiya va Rossiya Federatsiyalarida Advokatning kasb etikasi qoidalarga rioya qilmaslik natijasida qo`llaniladigan intizomiy jazo choralari biroz boshqacharoq ekanligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, 2011-yil 30-dekabrda qabul qilingan Belorussiyaning "Advokatura va advokatlik faoliyati to`g`risida"gi qonunida advokatlarga nisbatan qo`llaniladigan 3 xil intizomiy jazo chorasi ko`rsatib o`tilgan:

- tanbeh berish
- ogohlantirish
- hududiy advokatlar kollegiyasidan chiqarish⁹⁶.

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga ko`ra uning 3 xil turi mavjud:

- ogohlantirish (замечание)
- tanbeh berish (предупреждение)
- advokat maqomini tugatish (прекращение статуса адвоката)⁹⁷

III. Xorijiy davlatlar advokaturasi deontologik standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalari. (qiyosiy-huquqiy tahlil)

Qiyosiy-huquqiy tahlilning ahamiyati shundan iboratki, turli davlatlar huquq tizimlari va huquqiy institutlarni, ularning asosiy tamoyillari va kategoriyalarini taqqoslash yo`li bilan o`rganish orqali tadqiq etilayotgan materialni yanada chuqurroq va aniqroq tushunish mumkin.⁹⁸

O`zbekiston Respublikasi advokatura qonunchiligi uchun Rossiya Federatsiyasi va Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligining boshqa davlatlari tajribasi yetakchi g`arb

⁹⁶ Статья 21. "Об адвокатуре и адвокатской деятельности" в Республике Беларусь.

⁹⁷ Федеральный закон "Об адвокатской деятельности и адвокатуре в Российской Федерации". ст 37.

⁹⁸ Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent, TDYU. 2019. 107-bet.

davlatlari tajribalari (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va b.) kabi qadrlidir. Quyida Advokatning kasb etikasi qoidalaridagi ayrim bo`shliqlarni birma- bir tahlil qilgan holda Belorussiya advokaturasi deontologik standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalasiga to`xtalamiz:

Ishonch bildiruvchi shaxs bilan manfaatlar ziddiyati. Manfaatlar to`nashuvi advokat uchun eng murakkab bo`lgan axloqiy muammolardan biridir. Manfaatlar to`nashuvi advokat bir nechta tomonning qarama-qarshi manfaatlarini hisobga olishga majbur bo`lganda yuzaga keladi. Qonunchilikda manfaatlar to`nashuvi yetarlicha huquqiy tartibga solinmagan. Bu masalaga “Advokatura to`grisida”gi qonunning 7-moddasi va Advokatning kasb etika qoidalarida qisqacha tushuntirish berib o`tilgan, xolos.

2006-yil 27-iyunda qabul qilingan Belorussiya advokaturasi kasb etika qoidalarining 37-bandida advokat qaysi holatlarda yuridik yordam ko`rsatish to`g`risidagi shartnomani imzolashni rad etishi lozimligi belgilab berilgan. Milliy qonunchiligimizdan farqli ravishda unda bir norma mavjud. Unga ko`ra, advokat manfaati murojaat qilgan shaxsning manfaatlariga zid bo`lgan shaxsga yuridik yordam ko`rsatayotgan advokat bilan yaqin oilaviy munosabatda bo`lsa, rad qilishi lozim. Mazkur normani millil qonunchiligimizga kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buni quyidagi misol bilan kengroq yoritamiz:

A ismli shaxs advokatga huquqni himoya qilishni so`rab murojaat qilgan. A ismli shaxs bilan o`zaro ziddiyatda bo`lgan B ismli shaxs mazkur advokatning xotini himoyasi ostidagi shaxs sanaladi. Bu vaziyatda har ikki advokat er-xotinlik munosabatida bo`lganligi sababli ular bir-biriga qarama-qarshi pozitsiyada bo`lgan shaxslarning huquqini himoya qilishlari ishonch bildiruvchi shaxslarning manfaatlariga daxl qilishi mumkin. Bu axloq normalariga zid va adolatsiz harakatdir. Bu holat advokatga ma`lum bo`lgan sirning saqlanishiga bo`lgan kafolatni ham yo`qqa chiqarishi mumkin.

Advokatlik siri. Advokatlik siriga oid masala Qoidalarining “Advokatning kasbiy nufuzi va shaxsiy qadr-qimmatini” deb nomlangan bo`limida tartibga solingan. Belorussiya kasb etika qoidalarida esa advokatlik sirining alohida bobda yoritilganligini kuzatish mumkin. Fikrimizcha ushbu masalani alohida tartibga solish maqsadga muvofiqdir. Chunki advokatlik siri muhim etika qoidalaridan biri sanaladi.

Qoidalarining 15-bandiga e`tibor qaratadigan bo`lsak , unda advokatlik siri advokat faoliyatida ustuvor ahamiyatiga ega ekanligi va sirni saqlash muddati vaqt bilan chegaralanmasligi belgilangan. Fikrimizcha, advokatlik sirining vaqt bilan chegaralanmasligi umumiy tushuncha sanaladi. Ya`ni ushbu holatni turlicha talqin qilish mumkin. Bu holatda advokatlik sirining amal qilish muddatini aniq ko`rsatish lozim, deb hisoblaymiz.

Belorussiya tajribasiga e`tibor qaratadigan bo`lsak, Belorussiya kasb etika qoidalarining 18-bandida advokatlik sirining amal qilish muddati aniq ko`rsatilgan.

Unga ko`ra, advokatlik siri yuridik yordam ko`rsatish davrida ham, shuningdek yuridik yordam ko`rsatish davri yakunlangandan so`ng ham amal qiladi. Ushbu normani milliy qonunchilikka joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki bu masalaning aniqlashtirib qo`yilishi qonunchilik normasini no`to`g`ri talqin qilishga olib kelmaydi.

Yuqorida aytib o`tilganlarni hisobga olib, advokatlik etikasiga advokatlik faoliyati vakillarining mehnat faoliyati va xizmatdan tashqari xulqining axloqiy xarakterini ta`minlovchi yurish-turish qoidalari majmuidan iborat kasb etikasining bir turi, deb ta`rif berish mumkin. Umuman advokatlik etikasi advokatura xodimlarining ongining, qarashlarining to`g`ri shakllanishiga imkon beradi, ularni axloq normalariga og`ishmay rioya qilish, adolatni ta`minlash, insonlarning huquqlari va qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, o`z shani va obro`sini saqlashga yo`llantiradi.

Yuqorida keltirilgan Belorussiya advokaturasi kasb etika qoidalari va milliy qonunchiligimizni qiyosiy-huquqiy tahlilidan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ilgari surildi:

3. Qoidalarning 1-bandiga o`zgartirish kiritish. Ya`ni Advokatning kasb etikasi qoidalarini advokatlarni, advokat yordamchilari va advokat stajyorlariga nisbatan amal qilishini belgilash.

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1.1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

1.2 O`zbekiston Respublikasi "Advokatura to`g`risida"gi Qonuni

1.3. Кодекс профессиональной этики адвоката РФ.

1.4. Закон "Об адвокатуре и адвокатской деятельности" в Республике Беларусь.

1.5. Федеральный закон "Об адвокатской деятельности и адвокатуре" в Российской Федерации".

II. Darsliklar va o`quv qo`llanmalar

2.1. Advokatura. Darslik. D.Nurumov, A.Matmurotov. TDYU 2021.

2.2. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2019. -195 bet.

III. Ilmiy adabiyotlar va maqolalar

3.1. О соотношении понятий «Профессиональная этика адвоката» и «Правила адвокатской профессии». Научная статья по специальности «Право». Федосенко Ю. В., 2011.

IV. FOYDALANILGAN INTERNET MANBALARI:

4.1. <https://www.lex.uz>

4.2. <https://www.norma.uz>

4.3. <https://www.un.org/ruleoflaw/blog/document/basic-principles-on-the-role-of-lawyers/>.

4.4. <https://www.un.org/en>.